



Toshkent davlat
sharqshunoslik universiteti

XXI ASR: FAN VA TA'LIM MASALALARI

ilmiy elektron jurnali

ISSN: 2181-9874



EDUCATION

2025

MARKAZIY OSIYO TASAVVUF TARIXINING NEMIS OLIMI YURGEN PAUL TOMONIDAN TADQIQI: NAQSHBANDIYYA MISOLIDA

Shahzod Abdurasulov

Tayanch doktorant

“Tarixshunoslik, manbashunoslik va tarixiy tadqiqot usullari” yo‘nalishi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

E-mail: abdurasulovshahzod944@gmail.com

Tel: +998 94 602 23 99

Ilmiy rahbar: **Alisher Doniyorov**

Tarix fanlari doktori, professor

Markaziy Osiyo xalqlari tarixi kafedrası

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

E-mail: alisher_doniyorov@tsuos.uz

Annotatsiya. Maqola Markaziy Osiyo tasavvuf tarixining nemis olimi Yurgen Paul tomonidan o‘rganilishi va uning Naqshbandiyya tariqatiga doir tadqiqotlaridagi yondashuvni tahlil qiladi. Paul Naqshbandiyya harakatini siyosiy, ijtimoiy va madaniy tizim sifatida ko‘rib, tasavvuf institutlarining (silsla, xonaqoh, vaqf) jamiyatdagi o‘rnini yoritgan. Tadqiqotda Naqshbandiyya tariqatining faqat diniy “order” emas, balki ijtimoiy va madaniy tizim sifatida talqin etilishi ochib beriladi. Shuningdek, maqola Yurgen Paulning G‘arb tarixshunosligida Markaziy Osiyo tasavvufini o‘rganish metodologiyasining rivojlanishiga qo‘shgan ilmiy hissasini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: Yurgen Paul, Naqshbandiyya, tasavvuf, Markaziy Osiyo, G‘arb tarixshunosligi, ijtimoiy tizim, metodologiya, tarixiy yondashuv, sufiylik maktabi, vaqf.

A RESEARCH OF THE HISTORY OF CENTRAL ASIAN SUFISISM BY GERMAN SCHOLAR JURGEN PAUL: ON THE EXAMPLE OF NAKSHBANDIYYA

Shahzod Abdurasulov

Ph.D student

“Historical studies, source studies, and historical research methods”

Tashkent State University of Oriental Studies

E-mail: abdurasulovshahzod944@gmail.com

DOI: [10.5281/zenodo.17587678](https://doi.org/10.5281/zenodo.17587678)

Scientific supervisor: **Alisher Doniyorov**
Doctor of Historical Sciences, Professor
Department of History of the Peoples of Central Asia
Tashkent State University of Oriental Studies
E-mail: alisher_doniyorov@tsuos.uz

Annotation. The article analyzes the German scholar Jürgen Paul's study of the history of Central Asian Sufism and his approach to his research on the Naqshbandiyya order. Paul viewed the Naqshbandiyya movement as a political, social, and cultural system and highlighted the role of Sufi institutions (silsila, khanaqoh, waqf) in society. The study reveals the Naqshbandiyya order not only as a religious “order” but also as a social and cultural system. The article also shows Jürgen Paul’s scientific contribution to the development of the methodology for studying Central Asian Sufism in Western historiography.

Keywords: Jürgen Paul, Naqshbandiyya, Sufism, Central Asia, Western historiography, social system, methodology, historical approach, Sufi school, waqf.

ИССЛЕДОВАНИЕ ИСТОРИИ СРЕДНЕАЗИАТСКОГО СУФИЗМА НЕМЕЦКИМ УЧЕНЫМ ЮРГЕНОМ ПАУЛЕМ: НА ПРИМЕРЕ НАКШБАНДИЙИ

Шахзод Абдурасулов

Базовый докторант

«Исторические исследования, источниковедение и методы исторических исследований»

Ташкентский государственный университет востоковедения

Электронная почта: abdurasulovshahzod944@gmail.com

Тел.: +998 94 602 23 99

Научный руководитель: **Алишер Дониоров**

Доктор исторических наук, профессор

Кафедра истории народов Центральной Азии

Ташкентский государственный университет востоковедения

Электронная почта: alisher_doniyorov@tsuos.uz

Аннотация. В статье анализируется исследование немецкого ученого Юргена Пауля по истории суфизма в Центральной Азии и его подход к

изучению ордена Накибандия. Пауль рассматривал движение Накибандия как политическую, социальную и культурную систему и подчеркивал роль суфийских институтов (сильсила, ханакох, вакф) в обществе. Исследование раскрывает орден Накибандия не только как религиозный «орден», но и как социальную и культурную систему. В статье также показан научный вклад Юргена Пауля в развитие методологии изучения центральноазиатского суфизма в западной историографии.

Ключевые слова: Юрген Пауль, Накибандия, суфизм, Центральная Азия, западная историография, социальная система, методология, исторический подход, суфийская школа, вакф.

KIRISH

Islom tarixining ajralmas yo‘nalishi bo‘lgan tasavvufning shakllanishida Markaziy Osiyo allomalari yetakchi o‘rin tutadi. Bu yerda shakllangan Naqshbandiyya, Yassaviyya va Kubraviyya tariqatlari keyinchalik butun musulmon dunyosiga yoyilgan. G‘arbda, ayniqsa Germaniyada, bu yo‘nalishga bo‘lgan ilmiy qiziqish XX asr oxiri va XXI asr boshlarida sezilarli darajada kuchaydi. Mazkur maqolada Germaniyalik islomshunos olim, professor Yurgen Paul¹ asarlarida Markaziy Osiyo tasavvuf allomalari va tariqatlari qanday talqin etilgani tahlil qilinadi. U tadqiqotlarida o‘rta asrlarda va ilk yangi davrda Markaziy Osiyo va Sharqiy Erondagi islomga alohida e‘tibor qaratgan. Yurgen Paul Markaziy Osiyo tasavvuf tarixi va ijtimoiy jarayonlarni chuqur tadqiq qilgan. Olimning **“Die politische und soziale Bedeutung der Naqshbandiyya in Mittelasien im 15. Jahrhundert”**² (Naqshbandiylilikning XV asrda Markaziy Osiyodagi siyosiy-ijtimoiy ahamiyati), **“Doctrine and Organization of the Khwajagan/Naqshbandiya in the First Generation after Baha’uddin Naqshband”**³ (Ta’limot va tashkilot: Xvajagon–

¹ Yurgen Paul (1949, Lindgolm, Germaniya) - nemis islomshunos olimi va tarixchisi. U hozirda Halle-Vittenberg Martin Lyuter universitetida islomshunoslik bo'yicha nafaqadagi professor. Yurgen Pol 1989-yilda “Die politische und soziale Bedeutung der Naqshbandiyya” (“Naqshbandiyaning XV asrda Markaziy Osiyodagi siyosiy-ijtimoiy ahamiyati”) mavzusidagi dissertatsiyasi bilan doktorlik dissertatsiyasini qo‘lga kiritgan va u yuksak baholarga sazovor bo‘lgan. 1990-91-yillarda Istanbuldagi nemis sharq jamiyati Sharq institutida ma’ruzachi sifatida faoliyat olib borgan. Olim 1993-yilda Hamburg universitetini sharqshunoslik yo‘nalishi bo‘yicha tamomlagan. 1995 yilda Halle-Vittenberg universiteti qoshidagi Sharq institutiga islomshunoslik professori etib tayinlangan. 2014 yilda nafaqaga chiqqan. U ko‘plab masalalar qatorida so‘fiylik tariqatlarini ham o‘rgangan. U Markaziy Osiyodagi tasavvuf qo‘lyozmalarini tarixiy manba sifatida tadqiq etdi.

² Paul J. Die politische und soziale Bedeutung der Naqshbandiyya in Mittelasien im 15. Jahrhundert. – Berlin, 1991. – 265 s.

³ Paul J. Doctrine and organization. The Khwajagan-Naqshbandiya in the first generation after Bahauddin. Berlin, 1998. – 85 p.

“XXI asr: fan va ta’lim masalalari” ilmiy elektron jurnali. №3, 2025 yil ISSN: 2181-9874
Naqshbandiya tariqati Bahouddin Naqshbanddan keyingi birinchi avlodda), **“Forming a Faction: The Himāyat System of Khwaja Ahrar”**⁴ (Siyosiy ta’sir shakllanishi: Xoja Ahrorning himoyat tizimi), **“The Rise of the Khwajagan–Naqshbandiyya Sufi Order in Timurid Herat”**⁵ (Temuriylar davridagi Hirotda Xvajagon–Naqshbandiya sufiy tariqatining yuksalishi), **“Aymāq in 16th-Century Persian Sources from Central Asia”**⁶ (XVI asr Markaziy Osiyo fors manbalaridagi aymoq tushunchasi) kabi tadqiqotlarida tasavvuf tariqatlarining tashkil topishi va ularning ijtimoiy ta’siri atroflicha yoritilgan. Shuningdek, u Markaziy Osiyoda islomlashuv jarayonlari, xususan tasavvuf allomalari haqidagi rivoyatlar va ularning tarixiy ahamiyatini o’rgangan ilmiy maqolalar muallifidir. Paulning yondashuvi diniy-ma’rifiy manbalarni ijtimoiy-iqtisodiy tahlil bilan uyg’unlashtiradi. Uning fikricha, tasavvuf nafaqat ichki ruhiy tajriba, balki o’z davrining ijtimoiy tuzilmasi va siyosiy voqeligiga ta’sir ko’rsatgan hodisadir. Shu bois, Paulning ilmiy ishlari G’arb akademik doiralarida Markaziy Osiyo mutasavviflari merosini yangi nuqtai nazardan tanitishga xizmat qilmoqda.

Yurgen Paul o’z tadqiqotlarida turli yozma manbalardan foydalanadi: tazkiralari, hagiografik asarlar, vaqf hujjatlari, maktublar va risolalar shular jumlasidandir. Olim naqshbandiylikka oid tadqiqotlarni olib borayotganda bevosita unga taaluqli bo’lgan manbalarga murojaat qiladi. Xususan, Salohiddin ibn Muborak al-Buxoriyning “Anisul-tolibin va uddatus-solikin”⁷, Abdurahmon Jomiyning “Nafahot al-uns va hazorot al-quds”⁸, Bahouddin Naqshbandning shogirdi Muhammad Porsoning “Qudsiya”⁹ Sayfiddin Ali Safiyning “Rashohat-ul-ayn-ul hayot”¹⁰ kabi manbalarga murojaat qiladi. Bu yo’lda Yurgen Paulga rossiyalik

⁴ Paul, J. Forming a Faction: The Himāyat System of Khwaja Ahrar / International Journal of Middle East Studies, 23(4) (1991): 533–549.

⁵ Paul, J. “The Rise of the Khwajagan–Naqshbandiyya Sufi Order in Timurid Herat.” In: Green, N. (Ed.), Afghanistan’s Islam: From Conversion to the Taliban (pp. 71–86). Oakland: University of California Press, 2017. DOI: <https://doi.org/10.1525/luminos.23>

⁶ Paul, J. Aymāq in 16th-Century Persian Sources from Central Asia. Qo’lyozma (IVR RAN A-210 majmuasi asosida). 2021. 51-76 p.

⁷ Salohiddin ibn Muborak al-Buxoriyning “Anisul-tolibin va uddatus-solikin. O’zRFA SHI Qo’lyozmalar fondida 2520/I raqami ostida saqlanadi.

⁸ Жомий А. Нафахотул-унс / таржима қўлёзма маини Қўлёзма ЎзРФА ШИ Қўлёзмалар фондида 7286 рақами остида сақланади.

⁹ Muhammad Porso. Qudsiya. O’zbekiston FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida 6546\2 raqami ostida saqlanmoqda.

¹⁰ Сафий Ф. А. Рашахоту айнил-хаёт (الحيات عاين راسخات). / Форс тилидан Худойберган ибн Бекмуҳаммад таржимаси / Нашрга тайёрловчилар: М. Ҳасаний ва Б. Умрзоқ. – Тошкент, 2004. – 536 б.

¹⁰ Алишер Навоий. Хожа Баҳоуддин Нақшбанд қ.т.с. / Насойим ул-мухаббат. Мукаммал асарлар тўплами. Ўн еттинчи том. – Тошкент: ФАН, 2001. – Б. 134.

“XXI asr: fan va ta’lim masalalari” ilmiy elektron jurnali. №3, 2025 yil ISSN: 2181-9874
sharqshunos O. F. Akimushkin¹¹, o‘zbekistonlik Bo‘riboy Ahmedov¹² hamda Sabohat Azimjonova¹³ kabi olimlar manbalarni topish va uning matnlarini olishga yordam beradi. Yurgen Pol o‘z faoliyatida tasavvufga oid manbalar bilan ishlashda bevosita mahalliy manbashunos olimlar bilan hamkorligi uning tadqiqotining sifatini oshirishga xizmat qildi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda Yurgen Paulning Markaziy Osiyo tasavvuf tarixiga, xususan, Naqshbandiyya tariqatiga oid qarashlarini o‘rganishda tarixiy-manfaa tahlili, manbashunoslik va qiyosiy tahlil metodlari qo‘llanildi. Tadqiqot jarayonida asosan **sifat tahlili (qualitative analysis)** usuli asos qilib olindi, chunki muallifning yondashuvlari tarixiy kontekst, ijtimoiy tuzilma va diniy ta’limotlar kesimida baholandi.

Birinchidan, **tarixiy–xronologik yondashuv** orqali Yurgen Paulning ishlari Naqshbandiyya tariqatining shakllanishi va rivojlanish bosqichlariga ko‘ra o‘rganildi. Bu yondashuv XV–XVI asrlardagi ijtimoiy-siyosiy muhit bilan Paulning ilmiy tahlillari o‘rtasidagi bog‘liqlikni ochib berishga imkon berdi.

Ikkinchidan, **manbashunoslik metodi** orqali olim tahlil qilgan asosiy yozma manbalar – “*Rashohat ul-‘ayn al-hayot*”, “*Anisul-tolibin*”, “*Nafahot al-uns*” va “*Qudsiya*” kabi asarlar qamrab olindi. Ushbu manbalardagi ma’lumotlarning Yurgen Paul tadqiqotlarida qay tarzda qo‘llangani aniqlanib, uning matnshunoslik va tarixiy faktlarni solishtirishdagi uslubi tahlil qilindi.

Uchinchidan, **qiyosiy-tahliliy metod** yordamida Yurgen Paulning qarashlari boshqa G‘arb tadqiqotchilari – A. de Jong, J. Trimmingham, F. de Jong, A. Knysh kabi olimlarning ishlari bilan solishtirildi. Natijada Paulning yondashuvi G‘arb islomshunosligi doirasida o‘ziga xos ijtimoiy-funksional modelga asoslangani aniqlanadi.

Shuningdek, tadqiqotda **sotsiologik yondashuv**dan ham foydalanildi. Paul tasavvufni diniy-amaliy tizim sifatida emas, balki ijtimoiy institut sifatida talqin qilgan. Shu sababli maqolada uning bu konsepsiyasi Max Veber va Emile Dyurkgeymning ijtimoiy nazariyalari bilan uyg‘unlikda ko‘rib chiqildi.

¹¹ Elektron manba: http://www.orientalstudies.ru/rus/index.php?option=com_personalities&Itemid=74&person=210 О. Ф. Акимущкин

¹² Elektron manba: <https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/bo-riboy-ahmedov-1924-2002>

¹³ Elektron manba: https://uz.wikipedia.org/wiki/Sabohat_Azimjonova

Metodologik asos sifatida **interdisiplinar tahlil** qo’llanilib, tarix, falsafa, sotsiologiya va dinshunoslik yondashuvlari o‘zaro bog‘liq holda qo‘llandi. Bu esa Yurgen Paulning tasavvuf tarixiga oid yondashuvini nafaqat diniy, balki madaniy-sivilizatsion kontekstda baholash imkonini berdi.

MUHOKAMA

Yurgen Paulning ilmiy tadqiqotlari hozirgi kunda G‘arb tasavvufshunosligining yangi bosqichini boshlab bergani bilan ahamiyatlidir. U Markaziy Osiyo tasavvufini, xususan, Naqshbandiyya tariqatini faqat ruhiy-amaliy yo‘nalish emas, balki **ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tizim** sifatida ko‘radi. Paulning fikricha, Naqshbandiyya tariqati XV asrda Movarounnahrda ijtimoiy barqarorlik va siyosiy legitimlikni ta’minlashda muhim vosita bo‘lgan.

Olimning yondashuvi G‘arb tarixshunosligida tasavvufga nisbatan mavjud bo‘lgan “mistik oqim” stereotipini rad etadi. U tariqatlarni **ijtimoiy agentlik** sifatida, ya’ni siyosiy hokimiyat bilan o‘zaro munosabatda bo‘lgan institut sifatida talqin qiladi. Shu jihatdan Yurgen Paulning “The Himāyat System of Khwaja Ahrar” asari tasavvuf tariqatlarining iqtisodiy bazasi va ularning homiylik tizimini yoritishda katta ahamiyat kasb etadi.

Muhokama davomida shuni ta’kidlash lozimki, Paulning tahlili Naqshbandiylilikni faqat “ruhiy tozalanish maktabi” sifatida emas, balki **ijtimoiy harakat** sifatida ko‘rsatadi. U Xoja Ahror faoliyatini misol qilib, tariqatning jamiyatdagi iqtisodiy qatlamlarga, ayniqsa savdogarlar va hunarmandlar sinfiga yaqinligini ko‘rsatadi. Bu orqali u Naqshbandiylilikni o‘rta asr Markaziy Osiyosidagi **fuqarolik jamiyati institutlarining** dastlabki shakllaridan biri sifatida talqin etadi.

Paulning yondashuvida yana bir muhim jihat – uning **empirik manbalarga tayanishidir**. U hagiografik (avliyo hayotiga bag‘ishlangan) asarlarni bevosita tarixiy hujjatlar bilan solishtirib, tasavvuf tarixini afsonaviy emas, real tarixiy jarayon sifatida o‘rganadi. Shu jihatdan olimning ish uslubi zamonaviy tarixshunoslik talablari bilan hamohangdir.

Shuningdek, Yurgen Paul Markaziy Osiyo olimlari bilan hamkorlikda manbalar ustida ishlaganligi, uning tadqiqotlarida **transmilliy ilmiy aloqalarni** kuchaytirgan. U Bo‘riboy Ahmedov, Sabohat Azimjonova, O. F. Akimuskin kabi manbashunoslar bilan hamkorlikda o‘z tadqiqotlarini boyitgan. Bu ilmiy hamkorlik natijasida G‘arb tarixshunosligiga ko‘plab yangi manbalar kiritildi.

Natijada, Yurgen Paulning Naqshbandiyya haqidagi ishlari G’arbda Markaziy Osiyo tasavvufini o’rganishda yangi metodologik yo’nalish – **“ijtimoiy-funksional tasavvufshunoslik”** maktabini shakllantirganini ko’rish mumkin.

TAHLIL VA NATIJALAR

Jürgen Paul o’z tadqiqotlarida faqat shayxlar hayoti yoki risolalarga emas, balki yozma hujjatlarga ham tayangan. U vaqf hujjatlari, shahar idoralarining yozishmalari, xatlar hamda iqtisodiy va ijtimoiy ro’yxatlarni asosiy manba sifatida ishlatadi. Paul hagiografik manbalardagi ortiqcha maqtov va afsonaviy ma’lumotlarni ana shu ruxsatnoma va arxiv hujjatlari bilan solishtiradi. Shu orqali u sufiy merosni hayotiy voqealar va aniq dalillar asosida tahlil qiladi.

Yurgen Paul 1989-yilda **“Die politische und soziale Bedeutung der Naqshbandiyya in Mittelasien im 15. Jahrhundert”**¹⁴ (Naqshbandiylilikning XV asrda Markaziy Osiyodagi siyosiy-ijtimoiy ahamiyati) mavzusidagi dissertatsiyasi bilan doktorlik dissertatsiyasini qo’lga kiritgan va u yuksak baholarga sazovor bo’lgan. Bu tadqiqotda olim Markaziy Osiyolik tasavvuf tariqati sohibi Bahouddin Naqshbandning hayot yo’li va uning tasavvufiy faoliyatini batafsil manbalar asosida yoritishga harakat qiladi. Jumladan, Yurgen Paul naqshbandiylilik tariqatining XV asardagi Markaziy Osiyoning ijtimoiy- siyosiy, madaniy hayotidagi ahamiyatini ochib berishni maqsad qiladi.

Yurgen Paul asarda Abdulxoliq G’ijduvoniyni Markaziy Osiyo tasavvufining yirik namoyandasi, naqshbandiylilikning dastlabki nazariy asoschisi sifatida e’tirof etadi. U tomonidan ishlab chiqilgan sakkiz asosiy qoida keyinchalik Naqshbandiylilik tariqatining poydevoriga aylangani tarixdan ma’lum. XIII asrning og’ir sinovlaridan so’ng, Markaziy Osiyoda tasavvufni tiklash va rivojlantirish vazifasi Bahouddin Naqshband (1318 - 1389) zimmasiga tushdi. U Xo’jagon an’analari yangicha ruh bilan davom ettirib, tariqatga o’z nomini berdi. Paul Bahouddin Naqshband faoliyatini XIV asrda Movarounnahrda tasavvufning markazlashuvi va tizimlashuvi jarayonidagi hal qiluvchi bosqich sifatida ko’rib chiqadi. U Xo’jagon tariqatining ilgari shakllangan tamoyillarini tartibga solib, tariqat hayotini mahalliy sharoitlarga moslashtirdi. Naqshband tomonidan joriy etilgan “Xilvat dar anjuman” (“yig’in ichra xilvat”) prinsipi tasavvuf falsafasining muhim yo’nalishini belgiladi – ya’ni, sof dindorlik va Allohni eslash faqat zohidlikda emas, balki dunyoviy hayotning o’rtasida ham amalga oshishi lozim. Paul bu g’oyani Naqshbandiya tariqatining o’ziga xos

¹⁴ Paul J. Die politische und soziale Bedeutung der Naqshbandiyya in Mittelasien im 15. Jahrhundert. – Berlin, 1991. – 265 s.

g‘oyaviy poydevori sifatida ta’kidlaydi. Bahouddin Naqshband shogirdlariga jahriya (baland ovozda) zikr o‘rniga xufiya (jimgina) zikrni, ya’ni ko‘ngilda Allohni doimiy yod etishni tavsiya qilgan. Paul tarixiy dalillarga tayangan holda Naqshbandning musiqa va sama’ (sufi kechinmalar paytida musiqa eshitish) masalasidagi mo‘tadil pozitsiyasiga e’tibor qaratadi. Rivoyatlarga ko‘ra, Bahouddin Naqshband: “Biz bunday amallarni o‘zimiz bajarmaymiz, lekin boshqa qilganlarga ham man etmaymiz”, – deb aytgan. Olim fikricha, bu kabi muvozanatli yondashuv Naqshbandiyani keng ijtimoiy qatlamlar uchun maqbul qilgan, chunki tariqat qat’iy axloqiy intizom bilan birga, odamlarga nisbatan bag‘rikenglikni namoyish etgan¹⁵.

XV asrda Movarounnahr va Xurosonda Temuriylar hukmronligi davom etar edi. Temuriylar davrida naqshbandiylar nafaqat diniy, balki siyosiy hayotda ham muhim o‘rin egallay boshladilar. Bu jarayon keyingi xonliklar davrida ham ma’lum darajada davom etdi. Naqshbandiyya XV asrga kelib Movarounnahr va Xuroson hukmdorlari, zodagonlari va ulamolari orasida katta nufuzga ega bo‘ldi. Ko‘plab amirlar va sultonlar bu tariqatni homiylik qilishga intildilar. Yurgen Paul Temuriylar davridagi ushbu jarayonni alohida tahlil qilib, aynan shu davrda tariqat va siyosiy hokimiyat o‘rtasidagi munosabatlar yangi bosqichga ko‘tarilganini ta’kidlaydi. Yurgen Paul naqshbandiylik tariqatining XVI asrga kelib nafaqat Markaziy Osiyoda balki Turkiya va Hindiston ma’naviy hayotida ham muhim ahamiyatga ega bo‘lganligini aytib o‘tadi¹⁶.

Yurgen Paul **“Forming a Faction: The Himāyat System of Khwaja Ahrar”**¹⁷ (Siyosiy ta’sir shakllanishi: Xoja Ahrorning himoyat tizimi) (1991) maqolasida bu davrda naqshbandiylik tariqatida muhim o‘rin tutgan Xoja Ahror Valiy (1404 - 1490) faoliyatiga batafsil to‘xtaladi. Yurgen Paul tadqiqotlarida Xoja Ahror faoliyati tariqatning siyosiylashuvi jarayonidagi eng yorqin misol sifatida ko‘rsatib o‘tiladi. Xoja Ahror Samarqandda yashab, o‘z davrining yirik naqshbandiy shayxlaridan biri sifatida shuhrat qozongan. U naqshbandiylik ta’limotini keng targ‘ib qilish barobarida, jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarga befarq bo‘lmagan va bevosita siyosiy hayotda ishtirok etgan. Xoja Ahrorning: “Dunyo ishlariga aralashmasdan xalqqa xizmat qilib bo‘lmaydi” degan mashhur so‘zi bejiz aytilmagan. Paul bu fikrni Xoja Ahror orqali Naqshbandiyya doirasida “siyosiy tasavvuf” konsepsiyasi shakllanganini ko‘rsatadi. Ya’ni, tariqat piri nafaqat ruhiy murshid, balki

¹⁵ Paul J. Die politische und soziale Bedeutung der Naqshbandiyya in Mittelasien im 15. Jahrhundert. – Berlin, 1991. –S. 25-45.

¹⁶ Shu asar. 122-135.

¹⁷ Paul, J. Forming a Faction: The Himāyat System of Khwaja Ahrar / International Journal of Middle East Studies, 23(4) (1991): 533–549.

xalq va davlat oldidagi mas’uliyatni ham o‘z zimmasiga oluvchi arbob sifatida namoyon bo‘lgan. U diniy mavqe bilan birga resurslarni boshqara olgan, odamlar o‘rtasida vositachilik qilgan va shu tariqa siyosiy jarayonlarda muvozanat saqlagan. Shariat qoidalariga tayanib harakat qilgani uni jamiyat ko‘z o‘ngida ishonchli arbobga aylantirgan. Shu jihatlar orqali Xoja Ahror Yurgen Paul uchun tasavvufning amaliy kuchini ifodalovchi tarixiy model sifatida namoyon bo‘ladi.

Paulning talqinida Ahror o‘z ta’sirini yer egaligi, vaqflar va homiylik tarmoqlari orqali mustahkamlagan. U o‘zining mulk va boyliklarini tariqat manfaati yo‘lida vaqf (xayriya mulki) tariqasida ishga solgan va ko‘plab muridlarining iqtisodiy ahvolini yaxshilashga ko‘maklashgan. Tarixiy manbalarga ko‘ra, o‘sha davrda bir qancha yer egalari o‘z mulklarini Xoja Ahrorga topshirib, uning homiyligi ostiga kirganlar – buning evaziga tariqat ularning manfaati va xavfsizligini himoyalagan. Paul bunday himoyat tizimi Xoja Ahrorga katta ijtimoiy tayanch bazasini shakllantirishga imkon berganini ta’kidlaydi. Bu tizim natijasida Naqshbandiylar jamoasi jamiyatda mustahkam iqtisodiy poydevorga ega bo‘lgan.

Bundan tashqari, Xoja Ahror o‘z davrining yirik siyosiy voqealarida faol qatnashgan. Paulning ko‘rsatishicha, Xoja Ahror Temuriyzoda hukmdor Abu Said (1451–1469)ning hokimiyat tepasiga kelishida ma’lum darajada ko‘mak bergan va uning saltanatini mustahkamlashda ma’naviy maslahatgo‘y bo‘lgan. Masalan, manbalarda Xoja Ahror Abu Saidga harbiy yurishlar oldidan nasihat qilgani, ayrim janglarga chiqmaslikka undagani haqida ma’lumotlar bor. Bu misol tariqat peshvosining davlat ishlari va harbiy-siyosiy jarayonga aralashuvini ko‘rsatadi¹⁸.

Xoja Ahror vafotidan so‘ng ham Naqshbandiylarning Markaziy Osiyodagi nufuzi susaymadi. Paul tariqatning XV asr oxiri va XVI asr boshlaridagi holatini tahlil qilar ekan, Shayboniylar davrida ham Naqshbandiy shayxlarining roli yuqori bo‘lganini qayd etadi. Masalan, Shayboniylar sulolasining Buxoroda hukmronlik qila boshlagan ilk yillarida Naqshbandiylar bilan yaqin aloqalar o‘rnatilib, ularning ma’naviy ko‘magiga tayanilgan. Xoja Ahrorning avlodlari va izdoshlari shayboniy hukmdorlarga ham maslahatchi sifatida xizmat qilgani tarixiy manbalarda zikr etiladi. Bu esa tariqat an’analari uzviy davom etganini ko‘rsatadi. Paul, shuningdek, naqshbandiy allomalarining xotirasini e’zozlash orqali tariqat nufuzi mustahkamlanganiga e’tibor beradi. Bahouddin Naqshband maqbarasi XV–XVI asrlarda Buxorodagi muqaddas ziyoratgohlardan biriga aylangani, xalq orasida “Baho

¹⁸ Paul, J. Forming a Faction: The Himāyat System of Khwaja Ahrar / International Journal of Middle East Studies, 23(4) (1991): 533–549.

“XXI asr: fan va ta’lim masalalari” ilmiy elektron jurnali. №3, 2025 yil ISSN: 2181-9874
hazrat” qabri atrofida qator afsonalar tarqalib, bu joyni balo-qazolardan asrovchi markaz sifatida qabul qilishganini u keltirib o’tadi. Xuddi shuningdek, Samarqand yaqinidagi Xoja Ahror Valiy maqbarasi ham o’lka aholisining hurmat-e’tiboriga sazovor bo’lib, uning atrofida diniy maskan va bog’lar barpo etilgan edi. Paul nazarida bunday ziyoratgohlarning mavjudligi Naqshbandiylarning xalq orasidagi chuqur ildizlarini va tariqat peshvolarining o’lmas obro’sini anglatadi.

Olimning 1998-yilda nashr etgan **“Doctrine and organization. The Khwajagan-Naqshbandiya in the first generation after Bahauddin”**¹⁹ (Ta’limot va tashkilot: Xvajagon–Naqshbandiya tariqati Bahouddin (Naqshband)dan keyingi birinchi avlodda) asari ham naqshbandiylarning tariqati bo’yicha qilingan muhim tadqiqot hisoblanadi. Paul Naqshbandiyani “tayyor tariqat” sifatida emas, balki shakllanayotgan ijtimoiy harakat sifatida ko’rsatadi. Diniy amallar qattiq qoida emas, balki vaqt o’tishi bilan shakllanib boruvchi tizim sifatida talqin qilinadi. Paulning bu risolasi Naqshbandiyya tarixini yangicha talqin qilish uchun asos bo’lib xizmat qiladi. Yurgen Paulning bu asari Naqshbandiyya tarixini shaxsiy tarjimalar va avlod zanjiri doirasidan chiqarib, ijtimoiy tarix yo’nalishiga olib kiradi²⁰. Akademik doiralarda asarning ushbu metodik yangiligi alohida e’tirof etilgan. Shu yondashuv Paulning keyingi ishlarida – Hirot va Xoja Ahror haqidagi tadqiqotlarda yanada kengaytirilgan.

Markaziy Osiyo tasavvuf allomalari merosi asosan rivoyatlar va manobalar orqali talqin etilgan. Ammo bu yondashuv ko’pincha shahar hayoti, xonaqohlarning iqtisodiy faoliyati, siyosiy homiylik tizimi va rasmiy hujjatlar amaliyoti kabi masalalarni e’tibordan chetda qoldiradi. Jürgen Paul aynan shu bo’shliqni to’ldirishga harakat qiladi. U turli tarixiy manbalarni solishtirish orqali Naqshbandiyya harakatining shakllanishi va jamiyat bilan aloqalarini tahlil qiladi. Olim buni Hirot shahri misolida ko’rsatadi. U bu davrda tasavvufning qanday qilib nasliy shayxlar, ta’sirli shaxslar va shahar elitalari bilan bog’lanib, keng ijtimoiy tarmoqqa aylanganini ko’rsatadi. Shu jarayonda Xo’jagon - Naqshbandiyya XV asr o’rtalaridan boshlab chekka hududlardan siyosiy va madaniy markazga kirib boradi hamda Hirotidagi ilm, adabiyot va vaqf muhitining ajralmas qismiga aylanadi.

Uning **“The Rise of the Khwajagan–Naqshbandiyya Sufi Order in Timurid Herat”**²¹ (Temuriylar davridagi Hirotida Xvajagon–Naqshbandiya sufiy tariqatining

¹⁹ Paul J. Doctrine and organization. The Khwajagan-Naqshbandiya in the first generation after Bahauddin. Berlin, 1998. – 85 p.

²⁰ Shu asar. 40-55 betlar.

²¹ Paul, J. “The Rise of the Khwajagan–Naqshbandiyya Sufi Order in Timurid Herat.” In: Green, N. (Ed.), Afghanistan’s Islam: From Conversion to the Taliban (pp. 71–86). Oakland: University of California Press, 2017. DOI:

<https://doi.org/10.1525/luminos.23>

www.sharqjurnali.uz

DOI: 10.5281/zenodo.17587678

“XXI asr: fan va ta’lim masalalari” ilmiy elektron jurnali. №3, 2025 yil ISSN: 2181-9874
yuksalishi) asari ushbu masalani yoritishda muhim manba bo’lib xizmat qiladi. Hirot misolida u Naqshbandiylar o’z diniy amallarini shahar hayoti va ilmiy muhit bilan birlashtirganini ko’rsatadi. Uning fikricha, XV asrda Hirotida Xo’jagon – Naqshbandiyya moslashuvchan rasm-rusumlari, shariatga sodiqligi va elita vakillari bilan muvozanatli aloqalari orqali asta-sekin markaziy o’ringa chiqqan. Paulning fikricha, sufiylik faqat ruhiy holat emas, balki bilim yaratish va uni tarqatish tizimidir. Hirot muhitida bu jarayon Muhammad Porsoning ilmiy faoliyati va Xoja Ahrorning xalq bilan ishlash, moddiy yordam ko’rsatish hamda siyosiy ta’siri orqali yaqqol namoyon bo’lgan.

Hirot madaniy markazida so’fiylar orasida Abdurahmon Jomiy (1414–1492) va Alisher Navoiy (1441–1501) kabi buyuk shoir va olimlari yetishib chiqib, o’zining nazmiy va nasriy asarlari orqali Naqshbandiya tariqatining nazariy asoslarini boyitdi. Jomiy tasavvuf shayxlarining silsilasini sharaflab, “Nafahot ul-uns” asarida tariqat peshvolarining tarjimai hollarini jamladi. Alisher Navoiy Chig’atoy adabiyotining eng yirik vakili sifatida Naqshbandiylar ta’sirini o’z ijodida keng yoritdi. Xususan, “Nasoyim ul-muhabbat” asarida Navoiy Naqshbandiylar silsilasiga mansub allomalarni mufassal tahlil qilib, ularning ruhiy merosini badiiy shaklda ifodaladi. U tasavvufiy g’oyalarni turkiy tilda ifodalash orqali tariqatni keng xalq qatlamlariga yetkazdi. Paulga ko’ra, ushbu allomalarning maktublari va risolalari orqali Naqshbandiyya g’oyalari keng tarqalib, bu tariqat ilmiy kishilar orasida katta obro’ qozongan bo’lsa, siyosiy faoliyati orqali Naqshbandiylar Temuriylar saroyida hurmat qozonib, ularning pand-nasihatlarini davlat siyosatiga ma’lum darajada ta’sir o’tkazgan.

Jim zikr ularning asosiy amali bo’lsa ham, ular boshqa odatlar va marosimlarga qat’iy qarshi bo’lmagan. Shu sababli ular o’rtacha yo’lni tanlab, turli guruhlarini o’z atrofiga to’plagan. Shu muvozanat ularga diniy hayotda barqarorlik, jamiyatda esa keng qabul topish imkonini bergan. Jürgen Paul tasavvuf merosining qanday uzatilganini uch asosiy yo’l orqali ko’rsatadi. Birinchisi – odatlar. Jim zikr, hilvat va robita kabi amallar nafaqat ruhiy tarbiya, balki ichki tartib va ta’limiy intizomni mustahkamlovchi vosita bo’lgan. Ikkinchisi – xonaqohlar. Ular shahar hayoti va vaqf ishlari bilan chambarchas bog’langan joylar bo’lib, shu orqali bilim tarqalishida muhim rol o’ynagan. Uchinchi yo’l – yozma meros aylanishi. Risolalar, xatlar va shayxlar yozgan kitoblar tariqat g’oyalari keng yoygan. Shu yozma an’ana tufayli sufiy merosi uzoq vaqt davomida saqlanib, keyingi avlodlarga yetib kelgan. Jürgen Paulning Hirot haqidagi tadqiqoti Markaziy Osiyo tasavvuf allomalari merosini

“XXI asr: fan va ta’lim masalalari” ilmiy elektron jurnali. №3, 2025 yil ISSN: 2181-9874
o’rganish uchun muhim tahliliy asos yaratadi. U sufiylikni ko’p qatlamli tizim sifatida tushuntiradi. Bu tizimda silsila, marosim tartibi, xonaqohlar va matn almashinuvi bir-biriga bog’langan bo’g’inlar sifatida qaraladi²².

Yurgen Paul tadqiqotlarida yozma hujjatlarga ham murojaat qiladi. U rasmiy yozishmalar, farmonlar va vaqf hujjatlarini muhim manba sifatida tahlil qiladi. Yurgen Paulning **“Aymāq in 16th-Century Persian Sources from Central Asia”**²³ (XVI asr Markaziy Osiyo fors manbalaridagi aymoq tushunchasi) maqolasi Markaziy Osiyo tasavvuf allomalarining ijtimoiy hayotdagi rasmiy huquqiy maqomi to’g’risida ma’lumot beradi. Yurgen Paulning ushbu maqolasi 16-asr Markaziy Osiyo manbalarida uchraydigan “aymāq” atamasi, soliq va huquqiy yozishmalar, hamda ulamo-avlod guruhlarining maqomi orqali sufiy merosni hujjatlar asosida tahlil qiladi. Tadqiqot markazida Sankt-Peterburgdagi IVR RAN, A-210 raqamli qo’lyozmadan olingan bir farmon matni turadi. Bu hujjatda Ahmad Yassaviy avlodlari soliq to’lashdan ozod etilgani qayta tasdiqlanadi. Hujjatdagi nasabnoma Xoja Ubaydalloh Ahror tomonidan tasdiqlangani alohida ta’kidlanadi. Shu bilan birga, soliqchilar ro’yxatida bu avlod “aymāqāt” deb qayd etilgani, natijada ulardan muntazam yig’imlar olinib kelingani bayon qilinadi. Asarda bu avlodni “aymāq” ro’yxatiga kiritib yuborgani sababli nizolar chiqqani yozilgan. Paul bu hujjatni kengroq tarixiy muhokama doirasida tahlil qilib, “aymāq” atamasining Markaziy Osiyo kontekstida o’ziga xos ma’noga ega ekanini ko’rsatadi.

Paul bu manbada Ahmad Yassaviy avlodlarining bu imtiyozini uch darajali tasdiqlash tizimida ko’rsatadi. Avvalo, nasabnoma avlodning kimdan kelib chiqqanini isbotlaydi. Shundan so’ng, Xoja Ubaydalloh Ahror tomonidan berilgan tasdiq bu avlodga diniy obro’ bag’ishlaydi. Nihoyat, hukmdor farmoni ularning maqomini huquqiy jihatdan mustahkamlaydi. Shu tarzda, bu uch omil birgalikda avlodning jamiyatdagi mavqeini va soliqdan ozodlik huquqini qonuniy asosda himoya qiladi. Agar bu hujjatlar yo’qolsa, imtiyoz ham yo’qolgan, natijada guruh soliq to’laydigan “aymāq” ro’yxatiga tushgan.

“Aymāq” so’zining ma’nosi bu maqolaning ikkinchi asosiy yo’nalishini tashkil etadi. Yurgen Paul 16-asr Markaziy Osiyo forsiy manbalarida “aymāq” atamasi ko’pincha jamiyatda pastroq mavqega ega, soliq to’lash majburiyati bor qatlamlarga nisbatan ishlatilganini ko’rsatadi. Paulning bu tahlili “aymāq”ni faqat qabila

²² Paul, J. “The Rise of the Khwajagan–Naqshbandiyya Sufi Order in Timurid Herat.” In: Green, N. (Ed.), *Afghanistan’s Islam: From Conversion to the Taliban* (pp. 71–86). Oakland: University of California Press, 2017. DOI: <https://doi.org/10.1525/luminos.23>

²³ Paul, J. *Aymāq in 16th-Century Persian Sources from Central Asia*. Qo’lyozma (IVR RAN A-210 majmuasi asosida). 2021. 51-76 p.

“XXI asr: fan va ta’lim masalalari” ilmiy elektron jurnali. №3, 2025 yil ISSN: 2181-9874

birlashmasi sifatida talqin qiluvchi umumiy qarashdan farq qiladi. Unga ko‘ra, bu so‘z turli davr va hududlarda turlicha ma’no kasb etgan: ba’zan u dehqon aholisiga yaqin qatlamni, ba’zan esa ko‘chmanchi yoki harbiy guruhlarini anglatgan. Shu tarzda “aymāq” tushunchasi diniy emas, balki soliq va boshqaruv tizimiga oid atama sifatida izohlanadi. Yassaviy avlodlarining soliqdan ozodligi faqat ma’naviy e’tibor belgisi emas, balki aniq huquqiy asosga ega imtiyoz sifatida talqin qilinadi. Uningcha, Markaziy Osiyoda tasavvuf allomalari merosi shunday hujjat asosida shakllangan madaniyat orqali avloddan avlodga o‘tgan.

Paul o‘rganayotgan A-210 raqamli qo‘lyozmadagi hujjatlar, ehtimol, XVI asrda Buxoroda hukmron bo‘lgan Abdullaziz xon davriga tegishli. Aynan shu hukmdor Ahmad Yassaviy avlodining nasabini va soliqdan ozodlik huquqini qayta tasdiqlagan bo‘lishi mumkin. Matnda sufiy allomalarning o‘rni ikki asosiy yo‘nalishda ko‘rsatiladi. Birinchisi — Yassaviy avlodining huquqiy maqomi va ularning soliqdan ozodlik imtiyozining tan olinishi. Ikkinchisi – Naqshbandiyya bilan amaliy aloqalar, ya’ni Xoja Ubaydalloh Ahrorning tasdig‘i Yassaviy avlodining mavqeini mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi. Bu holat XVI asr Buxoro sharoitini odatda aytiladigan “tariqatlar o‘rtasidagi raqobat” ko‘rinishidan farqli tarzda ochib beradi. Paulning fikricha, bu davrda diniy guruhlar o‘rtasida raqobatdan ko‘ra hamkorlik kuchli bo‘lgan. Paul shu tariqa diniy rivoyatlarni haqiqiy yozma hujjatlar bilan solishtirib, sufiy avlodlarning ijtimoiy mavqei va iqtisodiy huquqlarini aniqroq tushuntiradi²⁴. Xulosa qilib aytganda, bu tadqiqot Markaziy Osiyo tasavvuf allomalari tarixini ikki yo‘nalishda boyitadi. Birinchisi – Yassaviy va Naqshbandiy an‘analarining amaliy aloqasi, ularning o‘zaro ta’siri va hamkorligi. Ikkinchisi – “aymāq” so‘zining XVI asr Buxoro va Hirot atrofida soliq va harbiy boshqaruv tizimida ishlatilgan maxsus atama sifatida shakllanishi.

Yurgen Paulning ikki asosiy tadqiqoti – Hirotidagi Naqshbandiyya va Buxorodagi “aymāq” manbalari – Markaziy Osiyo allomalari merosini yangi yondashuvda ko‘rsatadi. Paulning talqinida silsila avlodlarning o‘zaro bog‘liqligini tartibga soluvchi vosita bo‘lsa, xonaqohlar va vaqflar bu tizimni jamiyat hayotiga singdirgan. Rasm-rusumlar esa ruhiy intizom va ta’limiy uzluksizlikni saqlashga xizmat qilgan. Nasabnomalar, farmonlar va ro‘yxatlar orqali bu jarayon siyosiy hayot bilan ham uzviy bog‘langan. Hirotida turli shayxlar va tariqatlar o‘rtasida raqobat mavjud bo‘lgan bo‘lsa-da, Xo‘jagon – Naqshbandiyya o‘zining moslashuvchan yo‘li

²⁴ Paul, J. Aymāq in 16th-Century Persian Sources from Central Asia. Qo‘lyozma (IVR RAN A-210 majmuasi asosida). 2021. 51-76 p.

“XXI asr: fan va ta’lim masalalari” ilmiy elektron jurnali. №3, 2025 yil ISSN: 2181-9874
orqali asosiy diniy maydonga chiqqan. Buxorodagi “aymāq” manbalari esa bu jarayonning hujjatli va amaliy asoslarini mustahkamlab bergan. Shu tarzda, Paul Markaziy Osiyo tasavvuf tarixini faqat ma’naviy harakat emas, balki jamiyat hayotining bir qismi sifatida ko’rsatadi.

XULOSA

Xulosa sifatida aytganda, Yurgen Paulning tadqiqotlaridagi eng kuchli jihat – manba turlarini keng qamrab olishi. Yurgen Paul o’z tadqiqotlarida “tezis – dalil – xulosa” tartibiga qat’iy amal qiladi. Olim eski diniy rivoyatlar va shayxlar haqida yozilgan hayotiy hikoyalarni manba sifatida ishlatadi. U bu matnlarni tanqidiy ko’radi, ularni boshqa tarixiy ma’lumotlar bilan solishtiradi. U hagiografiyani vaqf hujjatlari, rasmiy yozishmalar va xatlar bilan bog’laydi. Shu orqali sufiylik tarixini nafaqat ruhiy, balki jamiyat va davlat bilan aloqador jarayon sifatida ko’rsatadi. Bu usul orqali u tasavvuf tarixidagi harakatlar, aloqalar va moddiy asoslarni bir butun tizimda tahlil qiladi. Shu bilan birga, ayrim cheklovlar ham mavjud. Hagiografik manbalarga tayanishdagi bir yoqlamalik butunlay yo’qolmaydi. Ba’zi odatlar yoki shaxsiy voqealar faqat tazkira manbalarda saqlanib qolgan, bu esa tekshiruvni murakkablashtiradi. Paul bu muammolarni yashirmaydi. Aksincha, u ularni ochiq muhokama qiladi va turli manbalarni solishtirish orqali dalillarni mustahkamlaydi. Jürgen Paul sufiylikdagi bilim merosini faqat ustoz va shogird o’rtasidagi muloqot bilan cheklamaydi. U bu jarayonni yozma manbalar orqali bilim tarqalishi sifatida ham talqin qiladi. Uning fikricha, risolalar, xatlar va kundalik daftarlar sufiy g’oyalarni tez va ishonchli yoyishda muhim rol o’ynagan.

Hirotdagi manbalar orqali Paul Naqshbandiylarning shahar hayotidagi o’rnini, Buxoro hujjatlari orqali esa sufiy avlodlarning rasmiy maqomini tahlil qiladi. Natijada tasavvuf merosi shaxslar tarixi emas, balki jamiyat hayoti bilan bog’liq tizim sifatida namoyon bo’ladi. Paulning bu yondashuvi Markaziy Osiyo tarixshunosligiga yangi turtki berdi. Uning usuli asosida endi Yassaviyya va Kubraviyya merosini qiyosiy tahlil qilish, xonaqohlar va vaqflarning iqtisodiy faoliyatini o’rganish, hamda “aymāq” atamasining ma’nosini boshqa rasmiy manbalar bilan solishtirish kabi yo’nalishlar ochilmoqda. Umuman olganda, Paulning ishlari tarixshunoslikda “tariqat” tushunchasidan “ijtimoiy tarmoq va institut” yondashuviga o’tishda muhim o’rin tutadi.

Yurgen Paul tadqiqotlarining yakuniy xulosalariga ko’ra, Markaziy Osiyo tasavvufi o’ziga xos ikki qirrali xususiyatga ega: bir tomondan, xalqchil mistika, ya’ni keng ommani qamrab olgan, ma’rifat tarqatishga qaratilgan sufiylik, ikkinchi

“XXI asr: fan va ta’lim masalalari” ilmiy elektron jurnali. №3, 2025 yil ISSN: 2181-9874
tomondan esa, ijtimoiy-siyosiy institutga aylangan tariqat. U G‘arb ilmiy muhitida
Markaziy Osiyo mutasavviflarini faqat taqvodor zohidlar sifatida emas, balki o‘z
davrining taraqqiyotiga ta’sir qilgan faol ijtimoiy shaxslar sifatida tanishtirdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Paul, J. “Forming a Faction: The Himāyat System of Khwaja Ahrar.” *International Journal of Middle East Studies*, 23(4) (1991): 533–549.
2. Paul J. Die politische und soziale Bedeutung der Naqshbandiyya in Mittelasien im 15. Jahrhundert. – Berlin, 1991. – 265 p.
3. Paul J. Doctrine and organization. The Khwajagan-Naqshbandiya in the first generation after Bahauddin. Berlin, 1998. – 85 p.
4. Paul, J. “The Rise of the Khwajagan–Naqshbandiyya Sufi Order in Timurid Herat.” In: Green, N. (Ed.), *Afghanistan’s Islam: From Conversion to the Taliban* (pp. 71–86). Oakland: University of California Press, 2017.
5. Paul, J. “Conversion Narratives in Local Sources from Pre-Mongol Central Asia.” In: Moser, K., & Tolino, S. (Eds.), *Wissenskulturen muslimischer Gesellschaften* (pp. 315–334). Berlin: De Gruyter, 2023.
6. Paul, J. “Notes on a Central Asian Notebook.” In: Quenzer, M. (Ed.), *Exploring Written Artefacts*. Hamburg: SFB 950 / OAPEN, 2021.
7. Paul, J. *Aymāq in 16th-Century Persian Sources from Central Asia*. Qo‘lyozma (IVR RAN A-210 majmuasi asosida). 2021. 51-76 p.
8. Gross, J. A., & Urunbaev, A. (Eds.). *The Letters of Khwāja ‘Ubayd Allāh Ahrār and His Associates*. Leiden: Brill, 2002.
9. Mole, M. “Autour du Dâr-e Mansûr: L’apprentissage mystique de Bahā’ al-Dīn Naqshband.” *Revue des Études Islamiques*, 27 (1959): 35–66.
10. Kāshifī, ‘Alī ibn Ḥusayn. *Rashahāt ‘ayn al-hayāt*. Herat, XV asr oxiri.
11. Ahmad Yassaviy. *Hikmatlar (Devoni Hikmat)*. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 1991.
12. Navoiy, A. *Nasoyim ul-muhabbat*. Toshkent: Fan nashriyoti, 1983.
13. Rogers, J. M. “Ahrār, K̲vāja ‘Obaydallāh.” *Encyclopaedia Iranica*, I/6 (1986): 667–670.
14. Abdurasulov, Sh. “Markaziy Osiyo tasavvuf tariqati allomasi Bahouddin Naqshband va uning ilmiy merosi to‘g‘risida ma’lumot beruvchi manbalar tahlili.” *Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences*, 4(5) (2024): 46–51.